

## **Talab qilib olinguncha hisob raqami / bank kartasi bo'yicha ochish, xizmat ko'rsatish**

### **va boshqa bank xizmatlarini taqdim etish (oferta) uchun**

#### **[client\_uid] - shartnoma**

[filial\_city]

[oper\_day] y.

"O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki" aksiyadorlik jamiyati, bundan buyon matnda "BANK" deb yuritiladi, bankning [filial\_name] bo'linmasi Boshqaruvchisi [filial\_manager] Bank nomidan [dog\_date] yildagi [dog\_num] - sonli Ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi, bir tomondan [client\_name] bundan buyon matnda "MIJOZ" deb yuritiladi, boshqa tomondan, ushbu Shartnomani quyidagicha tuzdilar:

#### **1. Shartnoma mazmuni**

**1.1.** Bank mijozning nomiga bank bo'linmalarida ochilgan hisob raqamlarga bank xizmatlarini taqdim etadi, shuningdek quyidagi xizmatlarni taqdim etishda mijozning kelishilgan shaklda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan buyurtmalarini bajaradi:

- jismoniy shaxslarga talab qilib olinguncha omonatlarini, shu jumladan milliy va xorijiy valutilarda ochiladigan bank kartalari bo'yicha hisob raqamlar ochish;
- milliy va xorijiy valutilarda bank kartalarini chiqarish/qayta chiqarish;
- milliy va xorijiy valutilarda talab qilib olinguncha hisob raqamlar va bank kartalari bo'yicha operatsiyalar va to'lovlar o'tkazish;
- bank hisob raqamlarini bloklash, blokdan chiqarish;
- bank kartasi bloklangan hollarda kartaning shaxsiy identifikatsiya raqami (PIN) ni qayta o'rnatish;
- axborot xizmatlariga (SMS - xabarnoma, Push - xabarnoma (qisqa axborot xabarnomasi/xabar), E-MAIL, shaxsiy WEB - kabinet va / yoki mobil banking) ulanish;
- jismoniy shaxslarga milliy va xorijiy valutilarda muddatli va jamg'arma omonatlarini ochish (alohida shartnoma bilan);
- jismoniy shaxsning kredit olish uchun arizasini qabul qilish (alohida shartnoma bilan);
- jismoniy shaxslarga boshqa chakana bank xizmatlarini ko'rsatish;
- Bank mahsulotlari va xizmatlari haqida ma'lumot berish;

**1.2.** Mijozga bank xizmatlarini ko'rsatishda Bank quyidagilarga amal qiladi:

- ushbu Shartnoma;
- Jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatishda bankning rasmiy [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz) saytida joylashtirilgan bank komissiyasi tariflari;
- Bank mahsulotlari va xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha alohida shartnomalar;
- Mijozga yuqoridagi xizmatlarni ko'rsatishda tegishli amaliyotlarni amalga oshirish uchun Bank tomonidan belgilangan shakldagi arizalar;
- Joriy yoki kelgusidagi bank xizmatlarini ko'rsatish va tartibga solish maqsadida Bank tomonidan kiritilishi mumkin bo'lgan har qanday qo'shimcha kelishuvlar/qoidalar, shartlar va ilovalar;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlari, Bankning me'yoriy hujjatlari va ichki tartiblari hamda Yo'riqnomalari;
- Bank tomonidan xalqaro pul o'tkazmalari va bank kartalari uchun bank xizmatlarini ko'rsatish maqsadida tuzilgan alohida shartnomalar/bitimlar.

**1.3.** 1.2 - bandeda ko'rsatilgan hujjatlar ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

**1.4.** Bank xizmatlarini ko'rsatishda Mijoz ularni taqdim etish shartlarini qabul qiladi va bankka 1.2 – bandeda ko'rsatilgan tariflarga muvofiq komissiya mukofotini to'laydi.

**1.5.** Ushbu Shartnoma bo'yicha bankning [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz) saytida ko'rsatilgan mahsulotlar bo'yicha individual shartnomalar / bitimlar tuzish uchun mijoz Bankga tegishli ravishda to'ldirilgan ariza, shu jumladan rasmiy masofaviy xizmat kanallari orqali xam taqdim etadi.

**1.6.** Mijoz o'zining shaxsiy ma'lumotlarini va/yoki ushbu Shartnoma bilan bog'liq bo'lgan yoki Shartnomani tuzish va/yoki amalga oshirish tufayli shakllantirilishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa ma'lumotlarini Bankka taqdim etishga, saqlanishiga, qayta ishlanishiga va/yoki boshqacha tarzda ishlatilishiga o'z roziligini beradi va bunday rozilikni berayotganda u o'z ixtiyori bo'yicha va o'z manfaatlari uchun amalga oshirayotganligi tasdiqlaydi

## **2. Bank xizmatlarini taqdim etish shartlari:**

**2.1.** Talab qilib olguncha hisob raqamini, shu jumladan bank karta hisob raqamini dastlabki ochish Mijozning arizasi asosida identifikatsiyalash tadbiri bo'yicha amalga oshiriladi.

**2.2.** Bankning identifikatsiya qilingan mijozlari uchun talab qilib olguncha omonat hisob raqamini, shu jumladan bank kartalarini ochish, shuningdek milliy / xorijiy valutadagi bank kartalarini chiqarish / qayta chiqarish, bank hisobraqamlarini blokirovka qilish/blokdan chiqarish, axborot xizmatlariga ulanish (SMS - xabarnoma, E-MAIL, shaxsiy WEB - kabinet va / yoki mobil banking) bankning www.nbu.uz, veb-saytida joylashtirilgan Mijozning arizasi asosida yoki Milliy Bank mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi. Bank kartasining tayyorligi to'g'risida bildirishnoma Push -xabarnoma orqali mijozga yuboriladi, mijoz tomonidan kartani qabul qilib olish uning tegishli ravishda xujjatlashtirilgan arizasi asosida amalga oshiriladi.

**2.3.** Talab qilib olinguncha hisob raqami ochilganda Mijoz pul mablag'ini omonatga kiritadi, Bank qabul qiladi [sum\_dep] ([sum\_dep\_str\_uz]) "Talab qilib olinguncha", omonati bo'yicha foizlar yiliga [percent\_dep] % miqdorida (Bankning Aktivlari va Passivlarni boshqarish Qo'mitasi tomonidan belgilanadi va ushbu shartnoma tuzilgan paytda amal qiladi) [currency\_name]da.

- foiz to'lovlari \_\_\_\_\_ kalendar ish kunlariga ko'ra qilingan.
- Talab qilib olinguncha omonatiga qo'shimcha badallar naqd/naqd pulsiz shaklda qabul qilinadi.
- Omonat shartnomasi va pul mablag'larini hisobga qo'yish belgilangan tartibda berilgan [book\_serial] [book\_number]-sonli Jamg'arma kitobchasi (mijozning xohishiga binoan) bilan tasdiqlanadi.

**2.4.** Milliy va xorijiy valutadagi talab qilib olinguncha hisobraqamlar va bank kartalari bo'yicha amaliyotlar Bank tomonidan mijozning ko'rsatmalariga binoan, shuningdek, bank tomonidan to'lov tizimlari bilan tuzilgan shartnomalar/bitimlar asosida amalga oshiriladigan amaliyotlarni bajarish qoidalariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

**2.5.** Mijoz o'zi tomonidan hisobraqam blokirovka qilingan taqdirda PIN-kodni tiklash masofadan turib xizmat ko'rsatishning rasmiy kanallari orqali amalga oshiriladi;

**2.6.** Axborot xizmatlariga ulanish (SMS - xabarnoma, E-MAIL, shaxsiy WEB - kabinet va/yoki mobil banking) mijozning bank bo'limida shaxsiy ishtiroki yoki rasmiy masofadan xizmat ko'rsatish kanallari orqali mijozning arizasi asosida amalga oshiriladi.

**2.7.** Muddatli va jamg'arma omonatlarini ochish alohida tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi (namunaviy shartnomalar www.nbu.uz bankning veb - saytida mavjud).

**2.8.** Jismoniy shaxs taqdim etgan zarur hujjatlarga muvofiq mijozga avtokredit, iste'mol kredit, mikroqarz olish uchun arizalar rasmiylashtirish (kredit shartnomalarining namunalari www.nbu.uz bankning veb - saytida mavjud).

## **3. Tomonlarning majburiyatlari**

### **3.1. Bankning majburiyatlari:**

- Mijozning omonatlarini va bank operatsiyalarini sir saqlash va ular to'g'risida faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ma'lumot berish;
- Mijoz yoki uchinchi shaxslardan omonatning tasdiqlangan shartlariga muvofiq omonatga naqd pul va naqd pulsiz shakldagi pul mablag'larini Omonatchining omonati bo'yicha zaruriy ma'lumotlarini ko'rsatgan holda qabul qilish;
- Mijozning yoki uning vakillarining birinchi talabiga binoan (ishonchnoma orqali) omonatlarga qo'yilgan mablag'larni, shuningdek ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq hisoblangan foizlarni qaytarish;
- Omonat summasi bo'yicha foizlar Bank tomonidan olingan kundan keyingi kundan (mijozning shaxsiy hisobraqamiga) omonatchiga qaytarilishidan oldingi kungacha yoki boshqa sabablarga ko'ra omonatchining hisobraqamidan chiqarilishigacha hisoblanadi. Bank omonatchining hisobraqami xatlanishi tufayli ushbu hisob raqamidagi mablag'lardan foydalana olmaganligi davrida foizlar hisoblanmaydi.
- Agar foizlarni o'tkazish sanasi Bank ishlamaydigan kuniga to'g'ri kelsa, u keyingi bank ish kuniga o'tkaziladi. Shu bilan birga, kirim qilingan foizlar bank ishlamaydigan kunlari uchun hisoblangan foizlar miqdoriga ortadi.
- bank kartalarini belgilangan muddatda chiqarish/qayta rasmiylashtirish;
- mijoz bankka kelganda harakatsiz hisobraqamlarni blokdan chiqarishni amalga oshirish;
- axborot xizmatlariga mijozni ulab (SMS - xabarnoma, Push - xabarnoma (qisqa axborot xabarnomasi/xabar), E-MAIL, shaxsiy WEB - kabinet va / yoki mobil banking) mobil telefon raqami/ elektron pochta manzili, ushbu Shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatilgan namunaga ko'ra dastur asosida login, parol va foydalanuvchi yo'riqnomalarini taqdim etish.
- Mijozning yozma arizasiga ko'ra, boshqa mobil telefon raqamlarini, mijozning boshqa elektron pochta manzillarini axborot xizmatlariga ulash, shu jumladan avvalgilarini o'chirib qo'yish;
- Kredit arizalarini belgilangan muddatda ko'rib chiqish;

- mijozni xabardor qilish (axborot berish):
    - mablagʻ toʻgʻridan-toʻgʻri bank hisobraqamidan chiqarilishi toʻgʻrisida, hisobdan chiqarilgan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay, kimning foydasiga, sababi va chiqarilayotgan summaning miqdori koʻrsatilgan holda;
    - Mijozning bank hisob raqamlaridagi operatsiyalarni bank operatsiyalari toʻxtatib qoʻyilgan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay, bank operatsiyalarini toʻxtatib turish sabablarini koʻrsatgan holda.
- Tegishli bildirishnoma mijozning oʻz tanloviga koʻra quyidagi yoʻllar bilan mijozga yuboriladi:
- \_\_\_\_\_ (shaxsan);
- \_\_\_\_\_ (pochta orqali);
- \_\_\_\_\_ (elektron aloqa orqali: SMS - xabarnoma/ Push - xabarnoma/elektron pochta manzili).

### 3.2. Mijozning majburiyatlari:

- ushbu Shartnoma shartlariga rioya qilish;
- Bankka bank operatsiyalarini amalga oshirish va kredit olish uchun zarur boʻlgan aniq, ishonchli maʼlumotlar va hujjatlarni taqdim etish;
- Agar bank mijozga kredit berish toʻgʻrisida ijobiy qaror qabul qilsa, kredit shartnomasi boʻyicha majburiyatlarning bajarilishini taʼminlash;
- Mijozning pasport maʼlumotlari, yashash joyi, ish joyi, aloqa telefon raqamlari yoki boshqa shaxsiy maʼlumotlar oʻzgargan taqdirda, bu oʻzgarishlar haqida bankni 3 (uch) bank ish kunida xabardor qilish, shuningdek, yangi pasport maʼlumotlari nusxalarini va ushbu shartnomaning 3.1 bandida koʻrsatilgan axborot xizmatlari ulangan mobil telefon raqami va/yoki, elektron pochta manzilini taqdim etish;
- Bank kartasining shaxsiy maʼlumotlarini uchinchi shaxslarga yetib boʻlmaydigan joyda saqlash, bank kartasining shaxsiy maʼlumotlarini va PIN - kodini uchinchi shaxslarga bermaslik;
- muntazam ravishda bank hisobraqamlari/kartalari qoldigʻini tekshirish;
- bank kartasi balansida overdraftga yoʻl qoʻymaslik, bank kartasidagi texnik overdraft yuzaga kelganda karta egasi uni qaytarishi shart;
- bank kartasi yoʻqotilishi yoki oʻgʻirladinishi holatlarida bankni 24 soat davomida xabardor qilish, shuningdek bankning mobil ilovasi orqali kartani oʻzi bloklashi va/yoki bankni 24 soat davomida rasmiy masofadan xizmat koʻrsatish kanallari orqali xabardor qilish;
- Bankning [www.nbu.uz](http://www.nbu.uz) rasmiy veb-saytida joylashtirilgan tegishli mahsulot/xizmat koʻrsatmalari va qoidalari bilan mustaqil ravishda tanishib chiqish.
- olingan daromadlardan soliqlar va boshqa yigʻimlarni undirish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligining tegishli meʼyoriy hujjatlarda belgilangan talablariga rioya etish.

## 4. Taraflarning huquqlari

### 4.1. Bankning huquqlari:

- Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda hisobraqamidagi amaliyotlarni toʻxtatib turish yoki ularni bajarishni rad etish;
- bank amaliyotlarini oʻtkazishda hisobraqamlar boʻyicha amaliyotlar oʻtkazish uchun bank tariflarida nazarda tutilgan miqdorlarda komissiya haqini olish;
- jamgʻarma kitobchasi/bank kartasini yoʻqotganlik/zarar yetkazganlik uchun bank tariflarida nazarda tutilgan miqdorda komissiya haqini olish;
- bank mijozlarining hisobraqamlaridagi harakatlar boʻyicha axborot xizmatlari (mobil bank, sms-, e-mail, web-axborot) uchun bank xizmatlari tariflari (mijozning xizmatlar koʻrsatish toʻgʻrisida yozma arizasi asosida) boʻyicha komissiya undirish;
- Mijozdan pasport maʼlumotlari, yashash joyi va aloqa telefon raqamlariga kiritilgan har qanday oʻzgarishlar haqida maʼlumotni talab qilish va olish;
- Mijozga kredit berishda kredit tarixini, toʻlov qobiliyatini va kredit qobiliyatini "Kredit-axborot tahliliy markazi" Kredit burosiga, Kredit axboroti davlat reyestriga, Garov reyestriga, Jamgʻarib boriladigan pensiya tizimiga, Davlat soliq inspeksiyasiga, bank kartalari bilan operatsiyalar boʻyicha soʻrovlar yuborishga va boshqa maʼlumotlarni yigʻish hamda qayta ishlashga mijoz rozilik beradi.
- Mijozning ish beruvchilaridan olgan daromadlari haqidagi maʼlumotlarni soʻrash;
- ish beruvchilarga mijozning kredit va bankning boshqa mahsulotlari boʻyicha qarzini qaytarish uchun mablagʻlarni yuborish talabi bilan murojaat qilish;

- Agar mijoz aniq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etmasa, kredit berishdan bosh tortish va rad etish sabablarini keltirmaslik;
- boshqa bank mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida mijozning ma'lumotlari va bank operatsiyalarini tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq mijozning daromadidan soliq yoki boshqa yig'imlarni undirish

#### **4.2. Mijoz huquqlari:**

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, bank hisob raqamlarini shaxsan va o'zining vakili orqali (ishonchnoma orqali) boshqarish;
- istalgan vaqtda bank hisob raqamidan yoki uning bir qismidan mablag' talab qilish;
- telefon, elektron pochta manzili va / yoki shaxsiy kabinet va / yoki rasmiy masofadan xizmat ko'rsatish kanallari orqali axborot xizmatlaridan foydalanish;
- bankning internetdagi www.nbu.uz rasmiy saytida joylashtirilgan va/yoki rasmiy masofadan xizmat ko'rsatish kanallari orqali bank mahsulotlari, xizmatlari va tariflari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish;
- boshqa mobil telefon raqamlarini/elektron pochta manzillarini axborot xizmatlariga, shu jumladan avvalgisini o'chirishga, yozma ariza bilan yoki mustaqil ravishda shaxsiy WEB-hisob raqami orqali va/yoki masofaviy xizmat ko'rsatishning rasmiy kanallari orqali Bank bilan bog'lanish orqali ulanish;
- masofaviy xizmat ko'rsatishning rasmiy kanallari orqali yozma ariza va / yoki tegishli ariza yuborish orqali Bank tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar yoki boshqa xizmatlardan voz kechish;
- Shartnoma tuzilgandan so'ng pul mablag'larini olguncha bo'lgan davrda bepul asosda kredit mahsulotlarini olishdan bosh tortish;
- jarimalarni to'lamasdan istalgan vaqtda Bankdan olingan kreditni muddatidan oldin to'lash.

### **5. Sanksiya shartlari.**

5.1. Mijoz hisobvaraqlar bo'yicha amaliyotlar amalga oshirishda Sanksiyalarni buzmaslikni va qat'iy rioya qilinishni va ushbu shartnoma tuzilgan kundan boshlab mijoz har qanday iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalarni anglatuvchi sanksiyalarga rioya qilish va ularga rioya qilishga qaratilgan siyosat va protseduralarga amal qilishni, shu jumladan, AQSH Moliya vazirligining xorijiy aktivlarini nazorat qilish idorasi (Office of Foreign Assets Control of U.S. Department of the Treasury) yoki AQSH xukumiati, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi yoki Yevropa Ittifoqiga a'zo boshqa davlatlar yoki boshqa davlatlar boshqa organlari, departamentlari va agentliklari tomonidan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar (keyingi o'rinlarda - Sanksiyalar)ga amal qilishni kafolatlaydi, tasdiqlaydi va ta'minlash kafolatini oladi.

5.2. Mijoz Sanksiyalar orqali taqiqlangan yoki ularga nisbatan ushbu bitimlarni tuzish Sanksiyalarni buzilishi yoki Sanksiyadagi shaxslar foydasiga ishlatilishi mumkin degan asosli taxmin mavjud bo'lgan xar qanday shaxs yoki tashkilotlar bilan bitimlarga jalb qilinmagan va jalb qilinmaydi.

5.3. Mijoz sanksiyalar ostida bo'lgan shaxslarga yoki ularning manfaati uchun har qanday kelishuv, bitim, shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaydi.

5.4. Agar Mijozning qandaydir kafolati yolg'on, ishonchsiz va (yoki) noto'g'ri bo'lib chiqsa yoki ushbu Shartnomada ko'rsatilgan shartlar Mijoz tomonidan ta'minlanmasa, Bank Mijozning to'lov topshiriqlari asosida amalga oshirilgan amaliyotlar tufayli mablag'lar qaytarilishi, band solinishi, muzlatilishi, yo'qotilishi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunday holda, Mijoz boshqa Tomonning da'vosini olgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay ushbu Shartnomaning 3.2-bandida va 5 bo'limida nazarda tutilgan majburiyatni buzganligidan kelib chiqqan va/yoki Mijozning bunday kafolatining ishonchsizligi yoki noaniqligi natijasida paydo bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri va/yoki bilvosita zararlarni Bankka qoplab berishi shart. Shu bilan birga, Bank mijozga Shartnomani bajarishni bir tomonlama ravishda rad etish sanasidan 3 kalendar kun oldin xabarnoma yuborish orqali Shartnomani qisman yoki to'liq bajarishdan bir tomonlama ravishda voz kechish huquqiga ega.

5.5. Bank vakolatli organlar, tashkilotlar yoki banklar tomonidan salbiy choralar (pul mablag'lariga band solinishi; to'lovni rad etilishi va boshqalar) qo'llanishi uchun javobgar emas va Mijozga har qanday Sanksiyalar (shu jumladan, tegishli ro'yxatlar, jumladan OFAC, EU Sanctions Map va OFSI, SDN va CAPTA bilan cheklanmagan holda) tufayli Shartnoma bo'yicha Bank tomonidan o'z majburiyatlarini bajarish lozimligi ko'rsatib o'tilganiga qaramasdan Shartnoma bo'yicha bank o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini olmaydi.

5.6. Bank mijozning boshqa mamlakatlar qonunchiligi normalari bilan cheklangan yoki taqiqlangan (shu jumladan, tegishli ro'yxatlar, jumladan OFAC, EU Sanctions Map va OFSI, SDN va CAPTA bilan cheklanmagan holda) banklar va/yoki kontragentlar foydasiga amaliyotlarini amalga oshirmaslik huquqiga ega. Bunday holda, Mijoz

uning topshiriqlari/buyruqlari Bank tomonidan bajarilmaganligi uchun o'z Mijozlari oldida mustaqil ravishda javobgar bo'ladi.

5.7. Agar mijozning topshirig'ini bajarish tufayli Bankka jarimalar (boshqa mulkiy/nomulkiy sanksiyalar) qo'llanilsa, Mijoz bankka qo'yilgan sanksiyalar natijasida kelib chiqqan har qanday zararni Bankka kompensatsiyalash, shuningdek bunday jarimalarni qoplab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## **6. Shartnomaning amal qilish muddati**

6.1. Ushbu Shartnoma Tomonlar imzolanganlaridan keyin kuchga kiradi va 2-bo'limda ko'rsatilgan xizmatlarni olish tugaguniga qadar amal qiladi. Talab qilib olinguncha omonatlar bo'yicha hisobraqami, shu jumladan bank kartasi hisobraqami bo'yicha hisob-kitoblar hisob raqamidan hisoblangan foizlar bilan to'liq mablag' olinmaguncha va hisobraqamlarni yopish uchun tegishli ariza yuborguncha amal qiladi.

6.2. Bankning tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda Shartnoma bekor qilinishi mumkin.

## **7. Tomonlarning javobgarligi**

7.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

7.2. Bank O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq, mijoz tomonidan bank hisobraqamlariga kiritilgan mablag'larning saqlanishini kafolatlaydi.

7.3. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

- uchinchi shaxslarga shaxsiy hisob raqamlariga va/yoki mobil bank xizmatlariga kirish uchun login va parolning mijoz tomonidan oshkor qilinishi;
- Mijoz bank kartasini saqlash uchun tegishli chora-tadbirlar qabul qilmagan holda, karta shaxsiy ma'lumotlari mijoz tomonidan kartadan pul mablag'larini ruxsatsiz hisobdan chiqarish uchun karta shaxsiy ma'lumotlarini va PIN-kodni uchinchi shaxslarga / Internetda oshkor qilish;
- Mijoz tomonidan uchinchi shaxslarga mobil bank xizmatlari, SMS, Push-xabarnomasi va elektron pochta xabarnomalari orqali olingan ma'lumotlarni oshkor qilinishi;
- agar omonatchi uyali telefon raqamini va/yoki elektron pochta manzilini noto'g'ri ko'rsatgan bo'lsa, shuningdek, agar u bankka axborot xizmatlariga ulangan uyali telefon raqamini va/yoki elektron pochta manzilini o'zgartirish to'g'risida ma'lumot bermagan bo'lsa, yuborilgan SMS va elektron pochta xabarlari va/yoki mobil bank xizmati tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning oshkor bo'lishi.

7.4. Mijoz login/parolini oshkor qilish va/yoki boshqa shaxslarga mobil telefon raqamidan/elektron pochta manzilidan/shaxsiy kabinetdan/mobil bankdan foydalanishga ruxsat berish uchun javobgardir.

7.5. Mijoz kartaning shaxsiy ma'lumotlarini va PIN-kodni uchinchi shaxslarga o'tkazishda kartadan ruxsatsiz pul olish uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

## **8. Maxsus shartlar**

8.1. Tomonlar, "Bank siri to'g'risida" gi qonunda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish yoki shuningdek, bankka mobil bank, SMS, Push -bildirishnoma va elektron pochta orqali xabar berish, shuningdek shaxsiy WEB kabinet axborot xizmatlarini ko'rsatishga qaratilgan texnik xizmatlarni ko'rsatadigan shaxslarga taqdim etish bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi.

8.2. Ushbu Shartnomada ko'rsatilmagan hollarda taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga amal qiladilar.

8.3. Tomonlar o'rtasida o'zaro kelishuv bo'lmagan barcha nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

8.4. Ushbu Shartnomaning shartlari ushbu shartnomaga qo'shimcha bitim tuzish yo'li bilan tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra o'zgartirish kiritilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

8.5. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki asl nusxada (tomonlarning har biri uchun bittadan) tuzilgan

8.6. Ushbu Shartnoma Tomonlar tarafidan imzolangandan keyin kuchga kiradi. Tomonlar shunga rozi va Shartnomani bekor qilishning quyidagi tartibini belgilaydilar:

- istalgan vaqtda Tomonlarning kelishuviga binoan;
- istalgan vaqtda Mijozning tashabbusi bilan Bankni 5 kun oldin xabardor qilib;
- istalgan vaqtda Bank tashabbusi bilan, agar Mijoz Shartnomaning har qanday qoidalarini buzsa, bu haqda Mijozga 5 kun oldin xabar bergan holda;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda

## 9. Korrupsiyaga qarshi shartlar

**9.1** Taraflar ushbu Shartnomani tuzishda, Shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, Shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oldilar.

**9.2** Taraflar ushbu bo'limdagi korrupsiyaga qarshi shartlarda belgilangan korrupsiyani oldini olish choralari tan oladi va ularga rioya etilishini bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

**9.3** Agar bir tarafga boshqa tarafning ushbu bo'limda belgilangan belgilangan shartning buzilishiga yo'l qo'yanligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xabardor qilishni talab qilishi shart.

Tarafning talabi bo'yicha tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf Shartnomani bir taraflama to'xtatib turish yoki bekor qilishga, hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

**9.4** Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar, ularning affiliralgan shaxslari, xodimlari yoki vakillari:

- Har qanday shaxslarga, noqonuniy manfaatlar yoki boshqa noqonuniy maqsad va / yoki foyda olish uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, har qanday pul mablag'lari yoki boshqa qimmatliklarni berishga, taklif qilishga ruxsat bermaydilar va bunday harakatlarni amalga oshirmaydilar.

- Qonunchilikda pora berish/olish, tijorat porasi berish sifatida ta'riflangan harakatlarni, shuningdek qonuniy talablarga va jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi xalqaro hujjatlarga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshirmaydilar.

**9.5.** Har bir tomon boshqa tomonni (Bank xodimlarini) har qanday shaklda, jumladan pul mablag'lari berish, sovg'alar taqdim etish, bepul xizmat ko'rsatish yoki boshqa usullar bilan rag'batlantirishdan voz kechadi, bu esa Bank xodimini muayyan bog'liqlikka solish va mazkur xodimning rag'batlantiruvchi tomon foydasi uchun harakat qilishini taqiqlaydi.

**9.6.** Agar tomonlarda korrupsiya yoki firibgarlik holatlari sodir bo'lganligi yoki sodir bo'lishi ehtimoliga oid shubhalar yuzaga kelsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majburdir.

**9.7.** Xabar qilingan tomon mazkur shartnomadagi majburiyatlarni korrupsiya faktlari tasdiqlanishiga qadar to'xtatish huquqiga ega.

**9.8.** Tomonlar pora berish/olish yoki pora berish haqida yolg'on ma'lumotlar berish oqibatida kelib chiqqan zararni qoplash majburiyatini olishadi.

**9.9.** Tegishli tomon Bank bilan bog'liqlik va affilanganlik haqida ma'lumot berishga majbur bo'lib, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida ma'lumot taqdim etadi.

### TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

**Bank uchun:** [filial\_name]

Manzil: [filial\_address]

STIR: [filial\_inn]

Telefon: [filial\_phone]

Boshqaruvchi [filial\_manager]

**Mijoz:**

F.I.Sh: [client\_name]

Pochta manzili: [client\_address]

Telefon: [phone], [mobile\_phone]

Elektron manzili:

Tug'ilgan sana: [birth\_date]й.

Pasport/(shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat)

seriya: [passport\_serial] № [passport\_number] kim tomonidan, qachon berilgan: [passport\_place\_given], [passport\_date\_given] y.

(F.I.Sh. va imzo)

M.O'.

(imzo)

